

Kredit mahsuloti pasporti			
Kredit mahsuloti nomi	T E Z K O R P L U S (Buxoro)		
Kredit turi	Kredit liniyasi ochmasdan/Ochiq kredit liniyasi orqali		
Kredit mahsulotini ajratishi mumkin bo'lgan bank tarmoqlari	Buxoro mintaqaviy bank xizmatlar ofisi va unga qarashli bank xizmatlar markazlari		
Kredit maqsadi	Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish maqsadida, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun		
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi yoki xorijiy valyuta (loyiha ko'rib chiqilayotgan kundagi Markaziy Bankning rasmiy valyuta kursi bo'yicha aniqlangan) ekvivalentida (*)		
Kredit oluvchilar	Faoliyat yuritib kelayotgan davri olti (6) oydan kam bo'lmagan, doimiy faoliyat yuritayotgan va muntazam pul aylanmalariga ega bo'lgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlar/yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyektlar		
	Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari (XK, MCHJ, XF, QK va xk.)	Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari - YaTT,OT,XT va xk.	
Kredit miqdori	1 000 000 000,0 (Bir milliard) so'mgacha yoki uning ekvivalenti miqdorida xorijiy valyutada		
Kredit yuklamasi koeffitsienti	Kredit yuklamasi 30 foizdan oshmasligi lozim*		
Kredit ajratilishi	Hisob raqamiga o'tkazish orqali		
Kredit muddati	12 oy muddatgacha	24 oy muddatgacha	36 oy muddatgacha
Milliy valyutada foiz stavkasi	yillik 26,50 %	yillik 28,50 % dan kam bo'lmagan	yillik 30,5 % dan kam bo'lmagan
Xorijiy valyutada foiz stavkasi (*)	yillik 13,50 % (*)	yillik 14,50% (*) dan kam bo'lmagan	yillik 16,50 % (*) dan kam bo'lmagan
Imtiyozli davr	6 oy muddatgacha		
Kredit qarzдорligi mavjud hollarda kredit miqdorini hisoblash	Mijozning Bank oldida kredit qarzдорligi mavjud bo'lgan taqdirda jami qarzдорlik yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari bo'yicha 3,5 mlrd.so'm ekvivalentidagi summadan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT, OT, XT va xk.) bo'yicha 1,0 mlrd. so'm ekvivalentidagi summadan oshmasligi lozim. Shuningdek, nazorat asosida bir qarzдор yoki o'zaro aloqador qarzдорlar guruhiga ajratilgan kreditlar bilan birgalikda hisoblanganda, jami qarzдорlik 5,0 mlrd.so'm ekvivalentidagi summasidan oshmasligi lozim.		
Kreditni so'ndirish tartibi	Differential/Annuitet		
Kredit ta'minoti	Sug'urtalash shartlari bank uchun maqbul bo'lgan sug'urta kompaniyasining kreditning qaytmasligi xatarini sug'urtalash polisi yoki yuridik shaxslarning kafilligi (bunda yuridik shaxslarning kafilligi taqdim etilganda "«ASIA ALLIANCE BANK» ATBda kredit xizmatlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari bajarilishida ta'minotlarni qabul qilish tartibi" talablariga asosan qabul qilinadi).		
Talab etiladigan hujjatlar	Yuridik va moliyaviy hujjatlar	Xo'jalik yurituvchi subyektlar	Kredit arizasi, ta'sis hujjatlari, korxona ta'sischilari va rahbariyati ma'lumotlari, kredit olish va/yoki garov ta'minotini taqdim etish yuzasidan ta'sischilar roziligi/qarori;
			Moliyaviy hisobotlar va ma'lumotlar (1-2-shakl, yillik va operativ); balans yoyilmalari, boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa ma'lumotlar
		Yakka tartibdagi tadbirkorlar (xususiy tadbirkorlar)	Kredit arizasi, guvohnoma, pasport nusxasi, faoliyat ko'rsatayotgan joyi bo'yicha ma'lumotlar;
			Mijoz tomonidan shakllantirilgan va pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holda kredit mablag'larining qaytarilishini asoslab ko'rsatib beruvchi hisob kitoblar hamda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlar
	Biznes reja va loyiha hujjatlari	Xo'jalik yurituvchi subyektlar	Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari va pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holdagi kredit mablag'larining qaytarilishini asoslab beruvchi biznes reja va/yoki hisob kitoblar
			Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlar
Qo'shimcha shartlar	Qarz oluvchiga "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida faqatgina sug'urta polisi va/yoki uchinchi shaxs kafilligi ta'minoti ostida berilgan kreditlarning umumiy qarzдорlik qoldig'i yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari bo'yicha 1 000,0 mln.so'mdan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT, OT, XT va xk.) bo'yicha 800,0 mln. so'mdan oshmasligi lozim. Shuningdek nazorat asosida bir qarzдор yoki o'zaro aloqador qarzдорlar guruhiga ajratilgan kreditlar bilan birgalikda hisoblanganda ta'minotida faqatgina sug'urta polisi va/yoki uchinchi shaxs kafilligi ta'minoti ostida berilgan kreditlarning umumiy qarzдорlik qoldig'i 2 000,00 mln.so'mdan oshmasligi lozim; Mazkur Modulli kredit bo'yicha hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichi ushbu mahsulot qoldig'iga nisbatan 4%dan oshga taqdirda kreditlash to'xtatiladi, hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichlari bankning tegishli boshqarmasi tomonidan taqdim etib boriladi. Kreditlash mazkur NPL ko'rsatkichi belgilangan darajadan tushgan taqdirda qayta tiklanadi.		
Mijozga qo'yiladigan talablar	1. Yillik va so'nggi choraklik hisobot davriga Qarzдорning moliyaviy faoliyati zarar bilan yakunlanmagan bo'lishi lozim. Agarda, Qarzдорning faoliyati natijalari zarar bilan yakunlangan bo'lsa va u haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno; 2. Yillik va so'nggi choraklik hisobot davriga Qarzдорning o'z aylanma mablag'lari mavjudligi manfiy ko'rsatkichda bo'lmashligi lozim. Agarda, Qarzдор tomonidan ushbu ko'rsatkichlar haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno; 3. Mavjud kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzдорligi bo'lmashligi; 4. Kreditlar bo'yicha ohirgi 12 oy ichida: 30+dan oshgan muddati o'tgan qarzдорliklari 2 tadan ko'p bo'lmashligi; 60+dan oshgan muddati o'tgan qarzдорliklari 1 tadan ko'p bo'lmashligi; 90+dan oshgan muddati o'tgan qarzдорliklari bo'lmashligi; 5. Nazorat asosida o'zaro aloqador korxonalarning "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida muddati o'tgan kredit qarzдорliklari mavjud bo'lmashligi; 6. Nazorat asosida qarz oluvchini kredit tarixi to'g'risidagi (KATM) ma'lumotnomasiga asosan mijozning barcha tijorat banklari hamda o'zaro aloqador korxonalarning "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifalarida tasniflangan amaldagi kreditlari mavjud bo'lmashligi; 7. "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida bugungi kunda amaldagi kreditlari yuzasidan asosiy qarzдорlik va kreditga hisoblangan foiz qarzдорliklari bo'yicha oraliq hamda yakuniy to'lov muddatlarini uzaytirish holatlari bo'lmashligi; 8. "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kollegial organ tomonidan mavjud majburiyatlari boyicha belgilangan shartlarini bajarmaslik holatlari (umumiy jihatdan bajarilmaganligi, boshqa holatlari ya'ni muddatida bajarilmaganligi mustasno) mavjud bo'lmashligi; 9. "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan maqsadsiz ishlatilganlik holatlari mavjud bo'lmashligi lozim. (Maqsadli ishlatilganlik yuzasidan tekshiruv maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi. Bunda kreditlar bo'yicha maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnoma muddati yetib kelmagan, mijoz yetkazib beruvchini xizmat/mahsulot yetkazib bermaganligi uchun uni sudga bergan hamda kredit mablag'larini maqsadli ishlatilishini tekshirish lozim bo'lmagan mahsulotlar orqali ajratilgan kreditlar bo'yicha ushbu shart qo'llanilmaydi); 10. Mijozning Majburiy ijro byurosi tomonidan ochilgan ijro ishi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mablag' bo'lmashligi lozim; 11. Ohirgi 3 yilda kredit xizmatlari bo'yicha iqtisodiy sudda da'vo arizalari mavjud bo'lgan va da'vo arizasi qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan taqdirda so'rovnoma ko'rib chiqilib, rad etiladi.		

(*) Kredit mablag'larini xorijiy valyutada ajratish bankning ichki me'yoriy xujjatlarga asosan amalga oshiriladi. Bunda kreditlar xorijiy valyutada moliyalashtirish ko'zda tutilayotgan loyihalar bo'yicha import shartnomalarini moliyalashtirish maqsadlari uchun, shuningdek, ustuvor ravishda eksport tushumlariga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi;

(*) Kredit yuklamasi koeffitsienti hisoblash metodikasi:

Kredit yuklamasi koeffitsienti = Yangi kredit bo'yicha bir oylik o'racha to'lov / (mijozning oxirgi 6 oydagi faoliyatidan tushgan o'racha bir oylik tushumi - mavjud kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha o'racha bir oylik to'lov)